


TOG‘LAR KUYCHISI


Tog‘dagi kakliklarning qo‘shig‘i toshdan toshga, qoyadan qoyaga o‘tib uzoq-uzoqlarga sado berardi. Sharsharasoy darasidagi keng tekislikka tikilgan o‘tovda yotgan Botirjon bu sho‘h, jarangdor qo‘shiq ovozidan uyg‘onib ketdi. Yostiقدan boshini ko‘tarib ovoz kelgan tomonga – yelkama-yelka tutashib ketgan qoyalarga qaradi. Ha, aniq, ular shu tarafda sayrayapti. Kakliklar, dadasining aytishicha, huv ana shu tik qoyalar oralaridagi katta-kichik tosh kovaklarda yasharmish. Ular yurishsa, xuddi tovuqlardek to‘da-to‘da, gala-gala bo‘lib yurarmish. Kakliklar yurgan joylarda chayon bo‘lmasmish. Yana har tongda yoqimli sayrab yaqin-atrofdagilarni naq bong soatday uyg‘otarmish. Botirjon ovoz kelayotgan tomonga bir ajib his, havas bilan tikilib qoldi-da, dadil o‘rnidan turdi. Turdi-da, bir zamonlar katta bobosi ekib ketgan qari tol ostida o‘tadigan ariqqa qo‘yilgan tarnov suvida yuz-qo‘lini yuvdi. So‘ng shu tolning pastki shoxiga ilib qo‘yilgan sochiqda artindi va atrofga alanglab dadasini qidirdi. Ana, ana, dadasini qo‘ylar qamaladigan qo‘ra eshigini ochib, qo‘ylarni Sharsharasoy ustidagi keng o‘tloqqa haydayapti.

– Botirjon, o‘g‘lim, turdingmi, ana, qumg‘onda choy qaynayapti, damlab ichib ol. Keyin buloq suvini ekan ko‘chatlarimizga burib qo‘y. Suvsoqqangga o‘xshaydi.



Botirjon qo'liga ketmon olib, dadasi aytganday buloq suvini ko'chatlar arig'iga burib, qaytib kelib choyini ichdi. Xayoli esa hamon kakliklarda. Bir chiqib ularni o'z ko'zi bilan ko'rgisi keldi. Dasturxonni yig'ib, endi jo'namoqchi bo'lganida, uzoqdan Degres cho'qqisi yonlab o'tgan ilon izi yo'ldan, o'zlari tomon yelib kelayotgan mashinani ko'rdi.

– Kim bo'ldiykin ular? Nega kelishayapti?



Botirjon juda yaxshi biladi, bu tomonga ko'pda odam kelavermaydi, yana mashina bilan...

Mashina, o'tov pastida oqayotgan O'rikliksoyning chap betidagi kichik sayhonlikda quyuc o'sgan daraxtlar soyasiga kelib to'xtadi. Mashinadan tushganlardan birini, oraliq masofa ancha olis bo'lishiga qaramay, Botirjon darrov tanidi – fermerlar uyushmasining raisi – Qambarali amaki, ikkinchisini ilgari ko'rmagani uchun kimligini bilmadi.

– O'tovda biron kim bormi? – rais Qambarali aka Botirjonning oldiga keldi. – Dadang qani, o'g'lim?

– Dadam tepadagi o'tloqda!

– Yaxshi, endi o'g'lim, avval ana u tol ostidagi supaga joy qil. Ho'pmi?..

– Ho'p...

– Yana dadangga ham bizlarni kelganimizni xabarlab qo'y.

Botirjon avval, o'tov ichiga kirib mehmonlar kelganda yoziladigan sholchani ko'tarib chiqdi va supaga yozdi. Ko'rpachalar solib, yostiqlar ham qo'ydi. Supaga, huv Sharsharasoy ichkarisidan yengil shamol esib, dimoqqa turli gul-u gilyohlar hamda archa bo'yini ufuradi.

– Ajoyib joylar ekan, – deydi kelganidan beri bir og‘iz ham gapirmagan mehmon atrof manzaralaridan ko‘zlarini uzolmay.

– Rais buva, qoyil! Bu joylarda dam olish uyimi, yo bo‘lmasa sihatgoh qurilsa bormi – buyam bir shirin orzuda. Dam olishga kelganni armoni bo‘lmasov...

– Niyatimiz ham yo‘q emas, hokim buva, o‘rmon xo‘jaligi bilan gaplashib...

– Siz harakatingizni qilavering, – dedi hokim buva. – Men Toshmatovga aytaman. Hujjatlashtirib beradi. Sizga ham, bizga ham, qolaversa tumanimiz ahliga ham foydasi tegib turar bu joyni...

– Albatta, hokim buva...

Shu payt tonggi quyosh nurlaridan yaltirab yotgan qoyalar tomondan kakliklarning quvnoq sayragani eshitildi.

– Ana, eshityapsizmi, hokim buva, ular huv qoyalar tomonda.

Mehmon o‘zi olib kelgan sumkasini ochdi, ichidagi bo‘laklarga bo‘linib taxlangan ov miltig‘ini oldi. Tezkor harakat bilan o‘zi yig‘ib sozladi.

– Qani, rais buva! – ular asta tepaga ko‘tarilish uchun yo‘lga chiqishdi. Botirjon ularning hamma gaplarini eshitdi. Kakliklarga o‘q otish, ularni o‘ldirish, yo‘q u bunga sira-sira yo‘l qo‘ymaydi. Axir, kakliklar – bu tog‘larning ko‘rki, boyligi. Ularni otish esa – jinoyat... jinoyat...

Botirjon ulardan oldinroq aylanma yo‘ldan qiyalikka, xarsang toshlar oldiga shoshildi. Tepaga, toshlar oldiga chiqqanda bor ovozi bilan baqira boshladi.

– Dada-dada, daa-daaa!!!

Bunday ovozdan cho‘chigan kakliklar bir zumda ovozlarni o‘chirishdi, keyin yo‘rg‘alab tog‘ning kun tushmas tomoniga o‘tib ketishdi. Ketmay qolganlari esa o‘zlarini tosh panasiga olishdi.

Ota-bola o‘tovga kelishganida mehmonlar boya o‘zi joy qilib ketgan supachada o‘tirishardi.

– Yomon ish qilib qo‘yding-da, o‘g‘lim, – dedi Qambarali amaki. Bir-ikkita kaklikni otganimiz bilan ular kamayib qolmasdi...

– Nega unday deysiz, men dadamni chaqirgandim, xolos.


– Dadangnimish... Seni ovozingdan kakliklar cho‘chib berkinishdi, hatto sayramay ham qo‘yishdi.

Mehmonlar kechgacha kakliklar qaytishini kuttishdi. Ammo kakliklar qaytmadi. Dadam ular uchun otardan bir qo‘chqor olib so‘ydi. Qaynatma sho‘rva tayyorladik.

Mehmonlar qaytar mahali hokim buva raisga, dadamga bir gap aytdi:

– Yaxshi ish bo‘lmadi, lokin men juda xursandman. Nima uchun deysizmi, aytay: «Kakliklar – tog‘lar ko‘rki. Ularni otish emas, ko‘paytirish yo‘llarini qidirishimiz kerak. Ana shunda el-u yurt bizdan minnatdor bo‘ladi. Ha-ya, sen, o‘g‘lim Botirjon, kakliklarni himoyalab saqlash yo‘llarini top! Faqat bugungi ishingdan boshqacharog‘ini, yangisini xo‘pmi?»

Biz ularni mashinalarigacha kuzatib bordik. Shu payt tik qoyalar tomonidan kakliklarning sho‘h-sho‘h sayragan ovozlari eshitildi. Go‘yo ular hokim buva so‘zlarini ma‘qullaganday tinmay sayrar va



ketayotgan mehmonlarga o‘z «rahmat»ini aytayotganday bo‘lardi.

– Hokim buva, juda yaxshi odam ekan, – dedi dadam ular ketishgach, ortidan qarab. – Qani endi hamma rahbarlar ham shunaqa tabiatsevar bo‘lsami, vohamiz jannatmakon bir boqqa aylanardi...


Qoyalar tomondan kakliklarning ovozi tinmasdi. Go‘yo ular «Rahmat, senga kichik xaloskor!» deganday biri tinib, biri sayrardi...

UCHAR ILONLAR


(Buvimning hikoyasi)

Har yili bahor kelganida oilamiz dala bog‘ hovlimizga ko‘chib borardik. Dala bog‘ hovlimizning bir tomoni Opushta suviga tutash, ikkinchi chekkasi Zarcho‘yan cho‘qqilari tomon cho‘zilgan qir-u adirlarga ulanib ketardi. Bu joylar manzarasi bizga – o‘zim tengi bolalarga juda yoqardi. Shundanmi, ilk kelgan kunlarimizdan o‘zimizni qafasdan ozod bo‘lgan qushday his etardik. Oila yumushlariga qarashishdan bo‘sh qoldikmi tezda bir-birimizni izlab topib chillak, bekinmachoq o‘ynardik, qip-qizil gilamday ochilgan tog‘ lolalari bag‘rini oralardik, bahoriy go‘zallikdan zavqlanardik. Charchaganimizda supaday keng xarsanglar ustiga cho‘zilishib, olis-olislarni – qishlog‘-u shaharlarni kuzatishni xush ko‘rardik.

Ana, katta, baland imoratlarga boy G‘azalkent, unga yelkama-yelka tutashib ketgan Qoranqul, Xo‘jakent, Chorbog‘ qishloqlari. Bu qishloqlarni yonlab Chirchiq daryosi oqayapti. G‘azalkentdan pasti – Iskandar, Soylik, Xondoylik, Porgos, Ozodbosh qishloqlari.



Ha, bu yurtning barcha qishlog‘-u shaharlari go‘zal va fusunkor. Huv ko‘rinib turgan Chimyon tog‘ cho‘qqilari ortidan qizarib Quyosh chiqib keladi. Bosh ko‘taradi-yu, tog‘ cho‘qqisiga yetganida, bir dam olgisi keladimi, yo tonggi manzaralar husniga to‘ymaydimi – undan ayrilgisi kelmaganday uzoq turib qoladi.



Dala bog‘imizdagi supadan atrof juda yaxshi ko‘ringani uchunmi, cho‘zilib yotib kuzatishni xush ko‘rardim. Meni turgim kelmay erinchoqlik qilib yotganimni ko‘rgan oyim:

– Uyg‘ondingmi, qizim, tura qol, – derdilar va asta qo‘shib qo‘ydilar. – Sen ham quyoshday erinchoq bo‘lmasdan, tura qol!

– Oyi, oyi, Quyosh shunaqa erinchoqmi?

– Ha-da, uyam senga o‘xshab onasi «tur» deganda tog‘ cho‘qqisidan ko‘tarilaolmay uzoq turib qoladi-ku, – deydilar oyim.


– Yo‘q, oyijon! Men unaqa dangasa emasman, mana turdim, – deymanda o‘rnimdan turib joylarimni yig‘ishtirib qo‘yaman.

– Bo‘laqol, qizim, nonushta qilib olaylik, seni Toshbuloqqa, buvingnikiga olib boraman...

Bu gapni eshitib, tez harakat qilib, muzdek oqayotgan Opushta suvida yuzimni yuvaman. Dadamga, oyimga salom berib, dasturxon atrofiga solingan ko‘rpachaga o‘tiram.

– Onasi, qizimiz ham katta bo‘lib qolibdimi-a. Harakatlarini qara, dadil-a, – deydi dadam.

– O‘zingizning erka qizingiz-da! – deydi oyim kulib.



Nonushtadan so‘ng yo‘lga tushamiz. Toshbuloqqa-cha ancha yo‘l. Bizdan uch soy narida. Shundoq tog‘ning kungay bag‘rida. U yerda bobomning chiroyli dala bog‘i bor. Pastida yigirma-o‘ttiz xonadonli Sho‘rob qishlog‘i. Yuqori qismi Zarcho‘yan tog‘ining archazor adirlari. Uzoqda Zarcho‘yan cho‘qqisi ham ko‘rinib turadi.

– Oyi, oyi, – deyman. – Buvim aytadigan uchar ilonlar qayerda yashashadi. Bobomni, buvimni, tog‘alarimni chaqib olmaydimi-a?

– Chaqmaydi qizim, ularga yaxshi munosabatda bo‘lsang, albatta chaqmaydi.

Toshbuloqqa yetib kelganimizda bobom, tog‘alarim pichan o‘rishayotgan, buvim ovqat qilish harakatida ekan. Oyim bobolarim yoniga ketdi, men buvim bilan qoldim. Birozdan keyin buvim:

– Yur, qizim, buloqqa borib, suv olib kelamiz, – dedilar.


Yolg‘izoyoq yo‘ldan pastga, buloqqa qarab tushib boramiz.

– Oyingni bolaligi shu yerlarda, tog‘ bag‘ridagi tabiat qo‘ynida o‘tgan, qizim, – deydi buvim. – Bu yerning har qarich joyi oyingga tanish. Qayerda nimalar o‘sadi, qanday hayvonlar bor – onang yaxshi biladi. Uchar ilonlarni ham o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, onang...

Yodimda, bu yerga ilk ko‘chib kelgan kunlarimizda oying senday o‘n bir-o‘n ikki yoshlarda edi. Oyingni suvga – buloqqa yubordim. Buvang kelguncha choy tayyorlab turaylik, dedim. Chelak ko‘tarib suvga ketgan oying, biroz vaqt o‘tmay yuzlari oqarib, suvsiz qaytib keldi.




– Oyi, oyijon, u yerda ilonlar bor ekan, suv ololmadim.



– Ilonlar?! U yerda ilonlar nima qiladi?! Necha bor kelganmiz, biror marta ilon ko‘rganimiz yo‘q edi-ku. Ichimda «hali bolada birorta ilonni ko‘rgan bo‘lsa qo‘rqib ketgandir-da» – deb o‘yladimda, «qani yur, ana shu ilonlarni ko‘raylik» dedim. Oying bo‘lsa yo‘l-yo‘lakay «oyi-chi, oyi, ular uchar ekan» deb bidillaydi. Buloq boshiga borsak oying aytganday bir qancha qora rangli ilonlar: oddiy ilonlarga o‘xshamaydi, yaltiroq tanasining bir necha joyida patsimon narsalari ham bor. Men chelaklarni bir-biriga urib «darang-durung» qildim. Ilonlar buloqdan nari ketishdi. Shundan keyin buloqdan suv olib qaytdik. Tushlik payti bobongga bu haqda aytgandik, bobong: «Ha, ular qanotli uchar ilonlar, joyidan sapchiganda xuddi uchganga o‘xshaydi. Yaxshi qilibsizlar tegmay, tekkanlaringda bormi bir kunmas bir kun birortamizga zarari tegardi», – dedi. Shu-shu ularga ozor bermadik. Ular ham bizga ziyon yetkazmadi. O‘shanga ham mana yigirma-yigirma besh yilcha bo‘lib qoldi. Har yili biz bu yerga kelganimizdan bir oycha o‘tar-o‘tmas, ular ham shu buloq atrofida paydo bo‘lishadi. Kuzning dastlabki oylarida qanday kelishsa shunday tez g‘oyib ham bo‘lishadi. Hozir ham bor. Ana u tosh ustida kulcha bo‘lib yotib, quyoshda isinayotgan uch-to‘rt qarichli ilonlarni ko‘rayapsanmi?..

Men yassi tosh ustida biron hadiksiz cho‘zilib yotgan bir qancha qora ilonlarni ko‘rdim. Ilonlarning silliq qoramtir tanasining bir necha joyida patsimon



narsalar bo‘rtib-bo‘rtib turardi. Bu, mening nazdimda qanotchalarga o‘xshardi.

Biz ertasi kuni oyim bilan o‘zimizning dala hovlimizga qaytdik. Yo‘l-yo‘lakay oyimga buvim aytib berganlarini va ko‘rganim – ilonlarni gapirib charchamasdim.

– Ana, ko‘rdingmi, – dedilar oyim. – Tabiatda biz bilmagan sir-sinoatlar ko‘p. Ularni uqib o‘rganishga mehr kerak. Mehring bo‘lsa, hatto zaharli jonzotlar ham, yovvoyi hayvonlar ham senga ziyon-zahmat yetkazmaydilar.

Bu voqeadagi gaplar bo‘lib o‘tganiga ham mana qancha yoz, qancha qish o‘tdi. Bobom, buvim, dadam, oyim – yoshlarini yashab, bu dunyodan o‘tdilar. Ammo men...


Buvimning hikoyasi hamon meni yo‘lga chorlab turadi. Har yili bahorda dala hovlimizga ko‘chganimizda, bolaligim o‘tgan tog‘larga chiqqanimda, bolalar biror jonzotni azoblaganlarini ko‘rganimda, beixtiyor buvimning hikoyasini yodga olaman. Tabiatga, uning jonzotlariga mehr bilan munosabat qilish haqida o‘ylab qolaman. Go‘yo bu ishlarim bilan ona tabiat ishlariga ko‘mak berayotganday bo‘laman, bo‘laveraman.

ESDALIK SOAT

Oilamiz – katta oila. Yetti jonmiz. Dadam o‘zi ochgan firmasida ishlaydi, oyim esa uy ishlari bilan band. Bizni oq yuvib, oq taraydi. O‘zim texnika oliygohida, ukalarim huquq kollejida, kenjamiz biri



maktabda, biri bog'chada. Uyimiz to'rida katta osma soat bor. Qulog'i buraladigan qo'ng'iroqli soatimiz ham bor. Lekin oilamizda hech kim bu soatlarga unchalik e'tibor berishmaydi. Hammamiz dadamning qo'lidagi soatdan vaqtni aniqlaymiz. Bu soat juda



sodda yasalgan bo'lsa ham, oilamiz uchun, ayniqsa dadam uchun tabarruk – esdalik soat.

U bobomlarning taqqan soati. Yigirmanchi asrdagi dahshatli urushdagi jasorati uchun bobomga generalning o'zi bergan ekan. Yurganda xuddi devordagi zangli soatimizday «chiq-chiq», «chiq-chiq» degan ovoz chiqarib yuradi. Bu soatni taqish allaqachon urfdan qolgan bo'lsa ham dadam taqib yuradilar.

Oyim ba'zan dadamga:

– Dadasi bu soat eskib qolgan, yangilaringiz bor-ku, shulardan taqib yuring, – desalar ham taqmaydi.

– Onasi, bu soat oddiy soat emas, dadamlarning soati, – deydi.

Yaqinda men oliygohni bitirib ishlay boshladim. Ilk maoshimdan bitta soat olib dadamga sovg'a qildim.

– Yaxshi. Juda yaxshi. Endi bu soatni o'g'lim, sen taqasan. U hech qachon taqilmay qolmasligi kerak. Yodingda tut, endi, ertami kechmi uydagilar vaqtni sendan so'rashadi.

Qalbimda faxrlanishday bir g'urur paydo bo'ldi. Axir bobomning soati – dadamga, dadamdan menga o'tyapti. Bu soat bilagimga kattalik qilsa ham taqib yuraman. Yurganda xuddi devordagi osma soatimizday «chiq-chiq» qilib yuradi. Vaqtni ko'rsatuvchi raqamlariga allaqachon dog' tushgan. Shunday bo'lsa ham u oddiy soat bo'lmay juda qadrli yodgor – bobomlarni, dadamlarni eslatib turadi.

MUSICHA

Hovlimizdagi uzum so‘riga chiqariladi. Dadam yerdan yuqoriga ko‘tarib beradi, men ularni sim bag‘azlarga taqsimlayman. Bu yil bir shoxda ko‘p shoxchalar qolgan ekan, yaxshilab taray olmadim. Quyuq o‘rnashgan novdalar orasiga bahorda musicha in qurdi. Ko‘p o‘tmay bu inda ikki dona tuxum paydo bo‘ldi. Musicha ana shu tuxumlarini bosib bola ochish taraddudiga tushib qoldi. Bu haqda dadamga aytgan edim, dadam:


– Unga sira xalaqit bermagin. Vaqt bevaqt u yerga ko‘tarilib, yo ovoz solib musichani bezovta qilmagin. Yaxshisi uni yashash tarzini o‘rgangin, – deb qattiq tayinlardi. Dadam aytganicha ish tutdik. Ukalarim ham, o‘zim ham uni ortiqcha bezovta qilmadik. Bir hafta o‘tib, musicha bola ochdi.

Bu yangilikni birga o‘ynaydigan qo‘shni bolalarga aytgandim, ular musicha bolalarini «bir ko‘raylik» deb non ushog‘i hamda bug‘doy olib kelishdi. Biz payt poylab, musicha ovqat uchun uchib ketganida donni ini yoniga qo‘yib qo‘ydik.

– Bir tayyor dondan yeb, suyunib bizga rahmat aytsin-da, – dedi sariqdan kelgan qo‘shnim Jasurbek. – Don yeganda bir sevinganini ko‘raylik-da...

– Sevinishi mumkindir-u, lekin musicha tekin yemaydi-da, o‘zi yurib tushganlarni terib yeydi-da, – gapga qo‘shildi Botir, – biz qo‘ygan donni yermikin, ko‘raylik-chi...

– Ko‘ramizda. Bahonada ko‘p narsalarni bilib ham olamiz, – dedim men.



Biz pastga tushishimiz bilan musicha ham kelib qoldi. Tumshug‘ida keltirganini og‘zini ochgan bolalariga ulashib chiqdi. Ana, endi biz qo‘ygan dondan yeydi deb o‘yladik. Ammo donimiz ko‘rinib tursa ham musicha unga qaramadi, tumshug‘ini tekizib ham ko‘rmadi.

Kechqurun dadam kelganda men bu haqda aytgandim, dadam:

– Ko‘rdingmi, o‘g‘lim, hatto qushlar ham tekinni yemas ekan. O‘z mehnati bilan topgani shirinligini bilsa kerak-da. Musichaning hayoti menga ko‘p narsalarni, ayniqsa tekin topilgan ovqatga uchmaslikni o‘rgatdi.

Qarang-a, qushlarda ham inson o‘rganishga arziydigan ibratlar bor ekan-da!..

YOMG‘IRLI KUN – BEKATDA

Bahor havosini bilib bo‘lmaydi-da. Ertalab ishga kelganimda charaqlab quyosh chiqib turgandi. Tushlikka chiqsam, osmonning avzoyi buzuq – hamma yoqni qop-qora bulut bosib turibdi. Yomg‘ir tomchilayapti ham. Hademay chelaklab quyadigan turqi bor. Ustimga kiyganim ham yengil. Qo‘limda kunda olib yuradiganim – soyabon ham uyda qolibdi. «Tez-tez yuraqolay, uyga yetib olarman» degan o‘y bilan uyga shoshildim. Yo‘lning yarmiga yetganimda birdan yomg‘ir yog‘a ketdi. O‘zimni bahaybat, barglari quyruq daraxt – qayrag‘och ostiga olaman. Men o‘zimni panaga olganimni ko‘rib, yonimda kelayotgan soyabonli qiz ham yo‘lini qayrag‘och ostiga burdi. Qaradim – egnida oppoq fartuk, oyog‘ida shippak...

– Yengil kiyinibsən, oyog‘ingda shippak – ivib qolibsan-ku!

– Ertalab issiq edi-da, amaki! – burro, dadil javob qiladi qizcha. – Endi bo‘lsa... Yomg‘ir yog‘ib ketdi. Yaxshiyam oyim soyabonini kecha maktabda qoldirgan ekan. Ko‘ylaklarim suv bo‘lmasa ham, oyog‘imdagi shippagim suv, yana loy bo‘ladi-da...

– Nima uying uzoqmi?

– Yo‘q! Katta yo‘ldagi sadali uyda turaman.

– Yaqin ekan-ku, chopib yursang yomg‘irda qolmay yetib olasan.

– To‘g‘riku-ya, ammo shippagim...

Yomg‘ir yanada tezlashdi. Ko‘kda bir-ikki chaqmoq ham chaqdi. Qayrag‘och qanchalik quyruq, qalin bo‘lmasin, u yer bu yeridan chakka o‘tganday yomg‘ir tomchilay boshladi. Ilojsiz uni tinishini kutaman, yomg‘ir bo‘lsa battar avjiga chiqadi.

– Qiziq-a! – dedi qizcha bir mahal.

– Nimasi qiziq, qizim?..

– Oyog‘ingizda tufligim bor-u men sizdayam sandalmi debman.

– Tufligim borligi rost, ammo qo‘limda soyabonim yo‘q-da... Soyabonim bo‘lganda allaqachon uyga yetgan bo‘lardim.

– Meniyam oyog‘imda tufligim bo‘lganda, uyimga yetardim. Sizda soyabon...

– To‘g‘ri aytding, qizim.

– Unda meni soyabonimni ola qoling, amaki, – qo‘limga soyabonini berdi qizcha. – Ola qoling...

– Yo‘g‘-e, qizim, unda o‘zing qandoq ketasan?

– Yomg‘ir tinsa bo‘ldi, chopaman-u uyga yetaman.

– Baribir seni uvib qolishing menga yoqmaydi-da, qizim!

– Unda-chi, amaki...

– Unda men seni ko‘tarib olay, shunda soyaboningni boshimizga tutasan. Men ham, sen ham uvimaysan, oyog‘ing ham loy bo‘lmaydi. Rozimisan, qizim?..

– Roziman.

Uni men ko‘tarib oldim, u bo‘lsa soyabonni boshimiz ustiga...

Biz manzil tomon shoshib borardik. Dilimda topqir qizga ichimda «rahmat» aytib, minnatdor bo‘lib borardim.

BORINGGA SHUKUR, YALPIZOY!

Bobomning qiziq odatlari bor-da. Har kuni xo‘roz qichqirar-qichqirmay, hali tun o‘z ko‘rpasini yig‘ishtirmay turib oladi. Sovuq bo‘lsa ham yuz-qo‘lini oldimizdan oqadigan Tovoqsoyning muzdek suvida yuvib oladi-da, samovarga suv solib, o‘t tashlaydi. Buvim:

– Qo‘yavering, chol, o‘zim choy qo‘yaman, – deyishiga ham qaramaydi.

– Men choy qo‘ydim, sen choy qo‘yding – bari-birmasmi, onasi! – deydi.

Mana bugun ham, hali osmon oqarmasdan bobom turib olgan. Ko‘kka, bir-bir miltillab yonib o‘chayotgan yulduzlarga qaraydi.

– Tonggi harakat – sog‘ligingga barakat, bolam! Tura qol! Ana qaragin Chimyon cho‘qqilari yorishib bo‘pti, tura qol. Saharlab turish ham odamning bir



yaxshi xislati, bolam, – deydi bobom boshimga kelib sochlarimni silab.

Bobomning bu iliq mehridan erib men ham shahd bilan o‘rnimdan turaman. Bobom bo‘lsa hamon shoshirishini qo‘ymaydi.

– Bo‘laqol, bolam, tezroq yuvinib kiyin. Unutmagan bo‘lsang, bugun dalaga – yalpiz terгани boramiz...

– Bilaman, bobom aytdimi, boramiz, yana qayerga deng, yalpizlar quyuq o‘sadigan Sharsharasoyga.

Buvim allaqachon tayyorlab qo‘ygan nonush-taga o‘tiramiz. Birozdan so‘ng bobom bilan yo‘lga tushamiz. Bu payt atrof ancha yorishgan, Chimyon cho‘qqilari ortidan Quyoshning olovli boshi ko‘rina boshlagan bo‘ladi.

Yo‘l-yo‘lakay bobomning qiziq hikoyalarini tinglab Sharsharasoyga yetib kelganimizni ham sezmay qolamiz. Keltirgan oziqlarni shundoq buloq yonida o‘sgan tol shohiga ilamiz-da, ariqlar bo‘yidagi yalpizlarni terishga tushamiz. Hash-pash deguncha to‘rvalarimiz yalpizga to‘ladi. Qalbimizni ajoyib bir uforli is egallaydi.

Bobom tizzalab o‘tirganicha tergan yalpizlarni to‘rvaga solarkan tinmaydi.


– Xudoga ming qatla shukur, yana bir bahoriga yetkazdi meni. Yaxshi niyat! Yarim sog‘lik bilan teng, bolam! Niyat qilganni niyati ijobat bo‘ladi, bolam.

Bobomdan o‘rganibmi, har qalay men ham «yalpiz»dan bir hovuch olib ko‘zlarimga, yuzlarimga surtaman-u takrorlayman:


– Seni boringga shukur, Yalpizoy! Seni betakror bo‘yingga shukur, Yalpizoy!

SHAHLO CHIZGAN RASM

Shahlo bog‘chaga qatnaydi. Yoshi beshda bo‘l-sayam, juda qiziquvchan. Yo‘l-yo‘lakay daraxtlarni, uylarni, odamlarni, hatto yo‘l chekkasida oqayotgan ariqni ham kuzatib boradi. Qiziq-da, atrofidagi



hamma narsa harakatda. Aslida Shahlo rassom bo'lmog'chi. Chiroyli, chiroyli rasmlar chizmog'chi. Shundanmi uydayam, ko'chadayam, bog'chadayam xayoli chizadigan rasmlarida bo'ladi. Chizganlari ham bor. Hatto bir rasmi «G'uncha» da ham bosilib chiqqandi. Nomi ham juda chiroyli: «Oqayotgan suv». Shu sababmi bog'chadayam dugonalari uni yaxshi ko'rishib, dugonamiz «rassom» deb maqtab yurishadi.



O'tgan yili rasmlarini shaharda ko'rgazmaga ham qo'yishgandi. Shunda bir rassom amaki rasmlarini ko'rib «rassom qizim» deb rosa maqtagandi. Rassom amaki bilan tushgan surati ham bor.

– Katta bo'lganingda kim bo'lasan, qizim? – deb tez-tez so'rab turadi dadasi.

– Menmi, anavi amakinga o'xshab katta rassom bo'laman, – deydi burro-burro til bilan.

Yaqinda bir qiziq voqea yuz berdi. Dam olish kuni – hamma buvisi, adasi, oyisi, ukasi Dilshod ham uyda edi. Shahlo chizadigan qog'ozlarini tayyorladi-da, astagina so'radi:

– Ada, kimning rasmini chizay?

Adasi avval qiziga bir qarab oldi-da keyin asta dedi:

– Mana, bizlarni – buvingni, meni, oyingni, ukangni – hammamizni rasmimizni chizaqol. Ko'raylik-chi, bizlar rasmda qanday chiqarkinmiz?

Shahlo birpasda oldidagi qog'ozga allanimalarni chiza boshladi. Bir adasiga, bir oyisiga, bir buvisiga hatto kichik ukasiga ham qarab-qarab rasm chizardi. Ahyon-ahyonda «qimillamay o'tiriylarda» deb ham qo'yardi. U rasmning xomaki nusxasini chizib bo'lgandi

hamki ko'cha eshik qo'ng'irog'i jiringlab qoldi. Shahlo chizishini bir zumga to'xtatarkan bidilladi: «Sizlar qimirlamay o'tiringlar, o'zim qarayman» deb eshik ochgani chiqdi. Eshikni ochdi, ochdi-yu, o'ziga kulib qarab turgan rassom amakini ko'rdi. Sevinganidan:

– Rassom amaki keldilar! – dedi qiyqirib.

Rassom amaki ichkari kirdi, dadasi, oyisi, buvisi hatto kichik ukasi bilan ham ko'rishib chiqdi. Keyin Shahlo chizayotgan rasmni ham ko'rdi.

– Ona qizim, rasmni juda yaxshi chizibsang. Faqat biroz quloqqa, ko'zlarga e'tibor bersang bormi, rasming juda jonli, judayam chiroyli chiqadi.

Rassom amaki Shahloning qalamlaridan birini olib, rasmning u yer bu yeriga qalam tekkizib tuzatganday bo'ldi va dedi:

– Mana, qizim, rasming chiroyli bo'lib qoldi. Olgan mavzuing yaxshi, nomi ham «Oilaviy nonushta».


Shahlo bunday maqtovni ilk bor oila davrasida eshitganidanmi bir chiroyli jilmayib qo'ydi.

– Ko'rdingizmi buvijon, adajon, oyijon, ukajonim – bilib olinglar, endi oilamizning o'z surati bor. O'z surati bor!


Rasm hali to'la bitmagan bo'lsa ham hammaning nigohi Shahlo chizgan rasmga qaratildi.

G'ALABA GASHTI

Dars boshlanganiga ancha bo'lgan. Hamma o'quvchilarning fikr-o'yi ustozlari Odil akaning so'zlarida. Bu so'zlarda yashagan ajdodlarimiz hayoti, ular qoldirgan boy ma'naviy, madaniy meros ularning



ko‘z oldiga kelardi. Ana buyuk kitob «Avesto»ning qahramoni Zardo‘shning «ota borliqqa munosabat o‘zimizga bo‘lgan munosabatdir» degan dono so‘zlari jaranglaydi. Shu payt eshik ohista chertilib, xayollarimiz bo‘lindi. Eshik oldida, ha eshik oldida sinfimizning og‘riq karvoni – Aziz. Darsni o‘zlashtirmagani yetmaganidek, lofni ham zo‘r qiyvoradigan sinfdoshimiz...




– Kirsam bo‘ladimi?

– Bo‘ladi-yu, xo‘sh nega kech qolding o‘zi? Bu safar qanaqa bahonang bor, ayt, aytaver, eshitamiz. – Odil aka stulga o‘tirib atrofga birrov nazar solib chiqdi. Hammaning diqqati Azizda ekanligini sezgach, Aziz shunday dedi: – Bugun ertalab turaman deyman-u, tushim xalal berib tura olmayotganmishman. Oyim tur desalar ham turmasmishman. Tushimda Siz – nasihat qilayotganmishsiz. «O‘qi bolam, o‘qimasang sinfda qolib ketasan» dermishsiz. Shu deng yotgancha kitob o‘qibman, tom-tom kitob o‘qibman. Eng yaxshi o‘quvchilardan ham o‘zib ketibman...

– Ol-la, olib qochaver lofingni. Bu lofingga kim ham ishonardi, – dedi g‘azabini yashira olmay Olim.

– Bo‘ldi, yetar, – Odil aka ortiqcha gap ko‘payishini istamadimi gapni qisqa qildi. – Sen, Aziz, bundoq tanangga obdon o‘ylab, o‘g‘il bola ish qil. O‘rtoqlaring senga havas qiladigan bo‘lishsin.

Sinfda qandaydir g‘ala-g‘ovur boshlanib tindi. Odil aka dam sinfga bir nazar solib, bir zum jim turdi-da, «Kir, o‘tir!» dedi. Dars boshlandi. Ammo Azizning qulog‘iga gap kirmas, xayolida uch kun avval sinfdoshi Akrom bilan bo‘lgan suhbat ketmasdi.



– Aziz, xohlaysanmi, maktabga birga kelib, birga ketamiz. Do‘st bo‘lamiz. Darslaringga ham yordam beraman.

O‘shanda Azizga bu taklif yoqmagandi. Akrom ustimdan kulmoqchi deb ham o‘ylagandi. Endi o‘ylab qarasa bu gapda jon bor. Sinfda birorta do‘sti ham qolmabdi. Akrom bilan do‘st bo‘lsa... axir u a‘lochi bola, yordami tegadi-ku... U dars oxirigacha jim o‘tirdi. Biror sinfdoshiga gapirmadi ham, ular ham unga har kungiday e‘tibor berishmadi. Hatto har kuni unga yaqin bo‘ladigan Akrom ham negadir ro‘yxushlik ko‘rsatmadi. Shundanmi u o‘zini yolg‘izlanib qolganini his etdi.

– Akrom, meni kechir, kel, qaytadan do‘st bo‘laylik. Men, qilgan xatolarimni – hammasini tushundim...

Shu-shu ular qadrdon bo‘lib ketishdi. Azizning turli bahona-yu loflari ham barham topdi. Akromga qo‘shilib, kutubxonaga boradigan, hatto futbol o‘yinlarida qatnashadigan bo‘ldi. Nihoyat, sinf futbol komandasining faol a‘zosiga aylandi. Bugun bo‘lsa ikkita parallel sinf o‘quvchilari o‘rtasida futbol o‘yini o‘tkazilmoqda. Aziz chap qanot hujumchisi. O‘yin qizib borardi. Komandalar kuchi tengligidan, to‘p darvoza oldidan orqaga qaytardi. Nihoyat, Aziz komandasining navbatdagi hujumi keskin bo‘ldi. Akrom uzatgan to‘p komandadoshi Yo‘ldoshning oldiga tushdi. Yo‘ldosh ham to‘pni chaqqonlik bilan Azizga uzatdi. U to‘pni darvozaga yo‘naltirdi. Gol!

Hisob o‘yin oxirigacha o‘zgarmadi. G‘alabadan ruhlangan bolalar uylariga bir olam quvonch bilan qaytdilar.



– Yaxshi gol bo‘ldi-da, bunda, seni xizimating katta Aziz...

Bolalar biri olib, biri qo‘yib bugungi o‘yin haqida gapirardilar. Erishilgan g‘alaba ularning birligini, ahilligini ko‘rsatdi. Yana shu kungacha o‘zining g‘alati qiliqlari, loflari, yolg‘onlari bilan ko‘pchilik g‘ashiga tekkan Azizning o‘rtoqlari yordamida yaxshi o‘quvchilar qatoriga o‘tishi ham bir g‘alaba edi... Bu eng katta g‘alaba edi...

TOG‘DA

Erta bahor kunlarining biri. Havo bulutli. Etni junjitar sovug‘i ham bor. Atrof esa go‘zal. Go‘zallikka mahliyo bolalar Teraklisoy sharsharasining shundoq ustidagi kaftdek tekislikda, yolg‘iz o‘sgan bahaybat olcha daraxti ostidagi supachada o‘tirishibdi.

– Quruq o‘tinlardan yig‘sak bir gurillatib gulxan yoqarmidik, – luqma tashlaydi hammaga bir-bir nazar tashlab Sobir.

– O‘tin bo‘lsa yaxshi bo‘lardiyu, lekin o‘tinni kim teradi? – deydi Olim.

– Qani kim teradi, – yana kimdir gapga qo‘shiladi. Bolalar bir bitimga kelolmay o‘zaro tortishadilar, janjallashadilar.

Sherzod sheriklarining tortishuvlariga ham, janjallariga ham qo‘shilmay bir chekkada uzoq turdi, keyin biroz naridagi quyuq daraxtlar ichidan bir quchoq o‘tin terib keldi. Shundoq supachadan sal nariroqdagi bahaybat tosh panasida olov yoqdi. O‘tinlar namiqqanmi, biroz burqirab turdi-da, charsillab yona boshladi.



Bolalar olov yonayotganiga qiziqib galma-gal o'tin terib kelib gulxanga tashlay boshlashdi. Alanga tobora yuqoriga ko'tarilardi.

– Ish mana shunday bo'lishi kerak-da! – dedi Sherzod.

Bolalar avval unga, keyin gurillab yonayotgan olovga boqishdi. Olov ham oradagi dilxiralikni yuvib ketganday gurillab yonardi.

JAZO

Qodirjon bilan Nodirjon aka-uka. Biri maktabga, ikkinchisi bog'chaga boradi. Kecha ham bi-noyidek o'ynab o'tirgan aka-ukalar nimanidir talashib qolishdi. Bir-biriga aytmagan gaplari qolmadi. Ammo Qodirjonning Nodirjonga qo'l ko'tarishi hammasidan o'tib tushdi. Bu Nodirjonga alam qildi: «Akam bo'lsa o'ziga, nega qo'l ko'taradi? – deb o'yladi-da, akasidan alamini olishni rejalab qo'ydi. Akasi ko'chaga o'ynab chiqib ketganda, uyga kirdi-da akasining papkasini titkiladi. Qo'lga ilingan bir kitobini olib, jahl bilan ichki varaqlardan ikkitasini yirtib oldi. U bu ishi bilan xumoridan chiqdi.

...Oradan uch oy o'tdi. Yozgi ta'til tugab, yangi o'quv yili boshlandi. Hamma tengqurlari qatori Nodirjon ham birinchi sinfga bordi. O'rtoqlari qatori unga ham kitoblar berishdi. Kutubxonachi opa kitoblarni berarkan:

– Nodirjon, bu kitoblar a'lochi o'quvchimiz akang Qodirjonniki. Sen ham akangdek o'qishga harakat qilgin, – dedi.

Uyga yangi kitoblar olib shod qaytgan Nodirjon birdan xafa bo'lib qoldi. Chunki yap-yangi kitoblardan birining varaqlari yo'q edi. Bu varaqlarni o'zi yirtganini eslab, yuragi zirqirab ketdi.


QALDIRG'OCHLAR QO'SHIG'I

Erta bahor tonglaridan biri. Hali quyosh Chimyon tog'ining ortida, faqat osmon bag'ri salgina qizarib




kelayapti. Shunda ayvonda bir qo'shiq yangradi. Bu olis issiq o'lkalardan bultur bahorda qurib qo'ygan inini topib uchib kelgan qaldirg'ochlarning qo'shig'i edi. U qardon go'shasi omonligidan, adashmay topib olganligidan xursand bo'lib kuylardi.


– Hoy, yaxshilar, qardonlar, qaranglar! Men qaytdim! Men...



Anvarjon qaldirg'och ovozini o'z xonasida, is-siq o'rnida yotganча eshitdi. Aslida u saharlab uyg'onmasdi. Ammo tongdagi qaldirg'ochlarning vijir-vijiri uni uyg'otib yuborgandi. Quvonganidan hali uyg'onmagan ukasi Samadjonni uyg'otdi.



– Tur, tura qol, Samadjon! Ana, eshit, qaldirg'ochlarimiz qaytibdi. Eshityapsanmi, vijirlab bizlarni ham tur, deyapti. Turmasak bo'lmaydi. Yotsak bizlarni «uyquchi» deb yurmasin yana...



Aka-uka oldinma keyin turishib darrov hovliga chiqishdi. Boy, ana o'zlarining qadrdon qaldirg'ochlari...

– Salom, ey qadrdonimiz Qaldirg'och! Sen kelasan deb, iningni avaylab saqladik. Ko'rdingmi, dedi Anvarjon.


Qaldirg'ochlar o'zlariga tanish bolalarni yana ko'rganidan, yana eski do'stlari bilan birgaligidan – sevinchi ichiga sig'may vijirlardi. Farzandlari erta turganini ko'rib, Adolat ayaning yuzlari yorishdi.

– Kelganingdan aylanay, Qaldirg'och! Uyquchi bolalarimni ham ovozing bilan turg'izib olganingdan aylanay!

Qaldirg'ochlar onadagi xursandchilikni tushunganday vijir-vijirlarini qo'ymas, qaytaga avjiga chiqarib sayrashardi.

«BESH» BAHOLI INSHO

Sinfda «Ona» haqida insho yozilganiga ham bugun to'rt kun bo'ldi. O'quvchilar bu to'rt kunni sabrsizlik bilan o'tkazishdi. Chunki ular qanday baho



olganlarini bilishga juda qiziqishmoqda edi. Darsga kirgan ustozlari esa nima uchundir indamasdi. Diktant yozganlarida ham, bayon yozganlarida ham ahvol shu.

O'quvchilar bo'lsa so'roqqa tutishdi:

– Ustoz, ishimizni tekshirdingizmi?

Yozganimiz ma'qulmi?

– Tekshirdim, tekshirdim, – o'quvchilarini tinchlantirmoqchi bo'ladi ustoz. – Mana bu sizlarning daftarlaringiz – hozir tarqataman.

Bolalar daftarlari olishguncha ham sabr qilishmaydi. Takror-takror so'rashadi.

– Ustoz, menga qanday baho qo'ydingiz?

– Menga-chi?..

O'quvchilar fikri-xayoli ustozlari qo'lidagi baholar qo'yib olingan yashil daftarda. Kimdir o'tirgan joyidan bo'ynini cho'zadi, kimdir...

– Diqqat qilinglar, bir chekkadan baholaringizni aytaman.

– «Besh» ham bormi, ustoz!?

– Bor. Faqat gap ana shu «besh» baholi inshoda.

– «Besh» baholi inshoda ham xato bormi?


– Ha. O'quvchimiz ishini grammatikamiz qonun-qoidalari asosida yozishga erishgan, ammo bitta so'zni, katta harf bilan yozib qo'yibdi-da!

– Unda bu insho ham «besh» baholi emas ekan-da?!


– Unday demadim, faqat hammamiz maslahatlashib bahosini qo'ysak devdim-da... Bo'ladimi?

– Bo'ladi! – baravariga ma'qullashdi bolalar!


– «Dunyoda eng yaxshi odam bu – Ona» deb yozibdi u. Lekin bu gapdagi «ona» so'zini katta harf bilan yozib qo'yibdi-da. Xato ana shunda.



– Yo‘q, yo‘q, bu so‘z xato yozilmagan, ustoz! «Ona» so‘zi onaning «o‘ziday ulug‘ bo‘lib, katta harf bilan yozmaslik xato, – deyishdi bolalar. – Sinfdoshimizga «besh» baho qo‘ysangiz bo‘ladi, ustoz!



– Men ham shunday o‘yladim, – dedi ustoz. «Ona» so‘zi qayerda, qanday gapda yozilmasin katta harf bilan yozilgani yaxshi. Shundaymi, Baxtiyor?!



Baxtiyor bir ustoziga, bir sinfdoshlariga qarab jilmayib turardi.

O‘XSHAMAGAN RASM

O‘qituvchi dars so‘ngida bolalarga: «Kelgusi darsimizga toychoq rasmini chizib kelasizlar» deb uyga vazifa berdi.

Nodirjon ham uyga kelib, rasm chizishga kirishdi. Ammo chizganlari toychoqqa o‘xshamadi.

– Yaxshisi chizmayman, – dedi u o‘ziga. – Rasmni dadamga chizdiraman.

Shunday qildi ham. Dadasi ishdan kelganda erkalanib toychoq rasmini chizib berishini so‘radi. Rasmni chizdirdi ham. Ertasiga darsga borganda dadasi chizib bergan rasmni hammaga ko‘rsatib, rosa maqtandi.

– Ko‘rayapsizlarmi, mana bu – men chizgan toychoq!

Bolalar uni maqtanish odatini yaxshi bilishsa ham, u chizmagan rasmni ko‘rish uchun atrofini o‘rab olishdi.

– Naq toychoqning o‘zi! – dedi biri.

– Men ham shunday chizganimdami, – dedi yana biri.




– Rosti bilan o‘zing chizdingmi Nodir?!

– Albatta o‘zimda. Axir birov chizib bermaydi-ku...

Dars boshlanganda ustoz Nodirjonni doskaga chorladi.

– Ha, o‘g‘lim nega rasmni chiza olmayapsanmi, – so‘radi ustoz Nodirjonni qarab.



– Bo‘r yaxshi emas ekan, – dedi Nodirjon shalvirab. Bu gapdan o‘quvchilar kulib yuborishdi. Nodirjon esa qizarib ketdi.

Nodirjon qanchalar urinmasin, u chizgan rasm – dadasi chizgan rasimga o‘xshamasdi. Oxiri, qilgan aybi – rasmni adasiga chizdirganini aytib berdi.

– Buni o‘zim ham sezgandim, – dedi ustoz. Shuni tan olganing, to‘g‘ri gapirganing uchun ham seni kechirdim.

Nodirjon bu gapdan biroz yengil tortgandek bo‘ldi...

QING‘IR ISHNING QIYIG‘I

Nabijon Nortoy bilan tengqur ham qo‘shni, ham sinfdosh. Bu yil birinchi sinfga borishayapti. Faqat Nabijon chaqqon, harakatchan o‘quvchi bo‘lsa, Nortoy bo‘sh, dangasa – hamma ishda tayyoriga sherik bola. Shundan uyda ham, maktabda ham o‘zidagi bu kamchiligi tez-tez ko‘rinib qoladi. Mana hozir ham uyga berilgan vazifani o‘zi qilolmadi-da, darrov Nabijonni esladi.

«Matematikani qilib qo‘ygan bo‘lsa kerak, ke, undan so‘ray-da ko‘chirib qo‘ya qolaman».

Shu xayol bilan Nabijonlarnikiga o‘tdi – yo‘q – dalaga, dadasining oldiga ketibdi.

– Men matematikadan berilgan vazifani ko‘rib olmoqchiydim, boya darsda yozishga ulgurmagandim, – deb tushuntirdi Nabijonning singlisi Nargizaga.

– Akam boya bir nimalarni ishlovdi, shundoq darsxonasida yozuv stolida turibdi. Qaray qoling ishlagan bo‘lsa – tayyor...

– Yaxshi bo‘ldi-da, – o‘yladi Nortoy – ishlagan bo‘lsa, tayyor bo‘lsa – ko‘chirib olaqolaman.

U Nargiza bilan Nabijonning darsxonasiga kirdi. Stol ustida daftarlar yoziq, aftidan Nabijon ishni bajargan-u, yig‘masdan dalaga shoshilganga o‘xshaydi.

– Yaxshi bo‘ldi, – dedi Nortoy ularni ko‘rib. – Mana daftari stol ustida ekan, men darrov yozib olaman.

– Mayli yozavering, – Nargiza xonadan chiqib ketdi.

– Ish mana bundoq bo‘libdi-da, Nortoy, qara Nabijon o‘rtog‘ing tappa-tayyor qilib qo‘yibdi, o‘tirda – ko‘chiraver...

U stulga o‘tirdi-da, Nabijonning daftaridagi ishni ko‘chirib oldi. Bo‘lib, chiqib ketarkan, Nargizaga tayinladi.


– Nargiza, akangga daftaridagilarni ko‘chirib olganimni aytmay qo‘ya qol. Bilsa, «hoy, dangasa vaq-tida imillamay tez-tez yozsang bo‘ladi-ku, bunaqa uyimga kirib ko‘chirib yurmasding» deb dashnom beraveradi. Yana daftaridan ko‘chirib olganimni bil-sami, hammani oldida sharmanda qilishni ham qotiradi.

– Mayli.


Nortoy qanday tez kelgan bo‘lsa, shunday tez chiqib ketdi.

Nabijon daladan kelganda Nargiza o‘zining rasmlar daftariga allanimalarni chizib o‘tirardi.


– Aka, boya biznikiga o‘rtog‘ingiz Nortoy kelgandi. Matem daftaringizdan uy vazifasini ko‘chirib ketdi. O‘zi yozolmagan ekan, – deb bidilladi.



– Matem, daftaringdan?! Men vazifani to‘g‘ri ishlayolmagandim, xato qilib qo‘ygandim. Shuning uchun daladan kelib yana ishlayman deb ochiq qoldirgandim. Demak, Nortoy...



Hamma gap ertasiga – dars paytida bo‘ldi. Uy vazifalarini tekshirib yurgan ustoz G‘ulom aka Nortoyning ishini ko‘rdi-da, biroz jim turdi-da, dedi:



– Ishni boshlashga boshlabsan-u to‘g‘ri ishlay olmabsan-da. Shundan javobi ham chiqmabdi. Shunga bugungi bahong...

– Men, men, o‘zimmas, Nabijonning ishidan, ko‘chirib olgandim, – deya oldi u boshini egib.

Nortoy o‘rtoqlari oldida ko‘p izza bo‘lganidan bu gal boshqa indamadi, boshini egib turaverdi.

– Ko‘rdingmi, o‘zing ishlamay o‘rtog‘ing ishini chala bitganligini ham bilmabsan, – dedilar ustoz, koyib.

– Kechiringlar! Endi o‘zim ishlayman!

– Bu gaping chin o‘quvchining gapi bo‘lsa biz ham ishonamiz, aks holda...


– Rost gapim shu, ustoz, endi o‘zim ishlayman. Bilmasam Nabijondan so‘rayman.

– Aybini bilgan o‘quvchini kechirsa bo‘ladi. Albatta o‘zgarish sharti bilan...

Nortoy hammaga ishonchlaringiz uchun «rahmat» deganday bir-bir qarab chiqdi.

ASALARI

Lolaning bobosi asalchi – asalarilar boqadi. Shundanmi hovlilari naq gulzor – nomini Lola ham



bilmaydigan gullar bilan to‘la. Asalarilar ham erta tongdan gullar ichida – uchgani uchgan.

Bobosi: «Asalarilar gullar o‘sgan joyni gullar chiqargan ovozdan – taratgan xushbo‘ylaridan biladi», – deydi. Rostdan ham shu – asalarilar gulzor ovozi eshitib, u qayerda bo‘lmasin topib borishadi.

Yana bobosi: asalarilar hech qachon yanglishmaydi. Ovozlar ochilgan gullardan chiqayotganini bilib u tomonga uchib kelaverishadi. Gullar bilan tillashishib, ulardagi sharbatlarni qiyom savatchasiga solishadi. Kerakli sharbat to‘plaganlari bo‘lsa o‘z tilida g‘o‘ng‘illab ochilgan gullarga qarab:

«Rahmat senga guljon!» – deydi. Gullar bo‘lsa o‘z ishlaridan mamnun jilmayib qo‘yishadi. O‘zlarini o‘stirgan ona yerga, bo‘yin yaratgan tabiatga minnatdorlik bildirishganday gulli boshlarini Yerga egishadi, – deb aytadi.

Lola bobosining gaplariga ishonadi.

– Asal shuning uchun ham shirin-da, deb o‘ylaydi u. Uning fikri to‘g‘rimi?

DUGONALAR

Dilsora bog‘chaga juda chiroyli qilib tikilgan ko‘ylakcha kiyib keldi. Uning ko‘ylagiga guruhidagi qizlarning juda-juda havaslari kelishdi.

– Dugonajon, bu chiroyli tikilgan ko‘ylakchani qayerdan olding? – so‘radi Lola.


– O‘zingga ham o‘lchab tikilganday mos kelganini qara, – dedi Lobar.



– Qani endi menda ham shu bichimda, shu rangda ko‘ylagim bo‘lsa, – shirin orzulaydi Go‘zal.

– Oyijonim tikib berdilar, – g‘ururlandi Dilsora. – Singlimga ham tikkanlar...

– Oyijoning tikuvchimi? – baravariga so‘rashadi qizlar.



– Ha. Oyijonim tikuv fabrikasida ishlaydi – tikuvchi. Bolalarga ko‘ylaklar tikadi. Biz chetning ko‘ylaklarini emas, oyijonim tikkan ko‘ylaklardan, kiyamiz.

– Qanday yaxshi-ya! – deyishdi qizlar. – Oyijoningdan so‘rab ko‘r. Bizlarga – dugonalaringga ham shunaqa ko‘ylaklar tikib berarmikin-a?!

– Mayli!

Ertasiga Dilsora oyijonidan so‘rab keldi. «Tikib beraman, qizginamning dugonalariga» depti. Shunda qizlarning quvonchlarini ko‘rsangiz. «Rangi ham, bichimi ham o‘zingnikidaqa bo‘lsin», – deb tinmay bijillashadi deng.

Bog‘chadan qaytishar mahali oyijonisi kelib, qizlarning o‘lchamlarini olib ketdi. Ikki kundan keyin esa oyijonisi hamma ko‘ylaklarni tikib tayyor qildi. Mana bugun tayyor ko‘ylaklar qizlarga beriladi. Tikuv fabrikasi tikuvchisining sovg‘alari sifatida.


Endi har kuni qizlar bir xil rangda, bir xil bichimda tikilgan ko‘ylaklarni kiyib, qaragan ko‘zlarni quvnatib bog‘chaga kelishadi.

Ana qarang, bir xil kiyingan qizlar bir quchoq qizil gulday tovlanib kelishayapti.

Bilib oling, bular Dilsoraning dugonalari...

KAPALAK

Gulsaralar hovlisida mo‘jazgina gulzorlari bor. Ko‘rgan odamning havasi keladi, ko‘zi quvnaydi. Egatlarga qator qilib ekilgan gullar yashnab turibdi.



Xonaki gullardan tortib to navini ham, nomini ham biz bilmaydigan gullargacha bor. Gulzordagi gullarga oyisi Gulshoda opa parvona. Xuddi go‘dak bolasini parvalab o‘stirayotgan onaday mehribon. Yengil shaboda turganda, bir qator ekilgan rayhonlardan ajib, xushbo‘y ifor atrofga taraldi. Bu ochilgan gullarning dil tortar bo‘yi. Bu gullarning ishqibozi – o‘zi gul – kapalak charx urib uchayapti. Guldan gulga o‘tib, o‘ynab uchayapti. Umri juda qisqa-yu, ammo har o‘tgan onini besamar o‘tkazmay charx urib uchayapti.

Jajjigina Gulsara bu gul – kapalakni tutib olish payida. Qaysi gulga qo‘nsa, shu gul atrofida aylanadi. Kapalak bo‘lsa juda ayyor, endi tutaman deganida, xavfni sezadimi deyman, darrov qochib qoladi, tutilmaslik harakati bo‘ladi.

Oyisi bo‘lsa:

– Qizginam, kapalaklarni quvib xafa qilma. Qo‘y, tegma. Qaysi gulni xohlasa shunga qo‘nsin-yayrasin, – deydi.

– Bir marta qanotidan tutib ko‘rsam bo‘ldi – qo‘yvoraman, oyi, – deydi Gulsara ham.

Oyisi yana:

– Qizim, bir marta tutsang ham baribir, qanotlari sinadi, mitti joni azoblanadi, – deydi.

– Men uni og‘ritmay tutaman-da, oyi! – deya bidillashini qo‘ymaydi Gulsara ham.

Ammo Kapalak unga tutqich bermaydi. Qaytaga guldan gulga o‘tib yayrayveradi. Gulsara esa kapalak ortidan quvlashini qo‘ymaydi...

YO'LOVCHI KAMPIR

Qish kunlarining biri. Ertalab o'qiydigan sinflarda darslar tugab ikki dugona – Shahlo bilan Noila maktabdan qaytishardi. Ulardan sal olinroqda bir kampir ham borardi. Ikki qo'lida ikki tugun. Ko'cha, bolalar chana tortishib, konki ko'p uchishganidanmi yoki yo'lning o'zi biroz nishabli bo'lganidanmi sal sirpanchiq edi. Sal oyoqni noto'g'ri tashlasang bormi, toyib yiqilishing tayin.

– Shahlo, ana u kampirga qara. Yuki og'irmi deyman, zo'rg'a-zo'rg'a yurib borayapti. Yur yordam beramiz, – dedi Noila.

– U yaqin qarindoshing yoki buving bo'lmasa hammi?..

– Farqi yo'q, yuraver. Yurmasang, mayli, faqat sumkamni ko'tarib ol, men...

Noila Shahloga sumkasini berdi-da, o'zi tez yurib borib kampir qo'lidagi tugunlarni oldi.

– Menga bera qoling, buvijon! O'zingizga og'irlik qilayotganga o'xshaydi.


– O'zim ham ko'tarardim-u, mayli qizim, avtobus bekatigacha ko'tarisha qol.

Noila kampir qo'lidagi tugunni avtobus bekatigacha ko'tarishib bordi, to'xtab turgan avtobuslardan biriga chiqarishib ham yubordi.

– Rahmat, qizim! – dedi kampir jilmayib. – Odobli qiz ekansan, rahmat!

Noila kampirni kuzatib, Shahloning oldiga keldi, birgalikda yo'llarini davom etishdi.

– Noila, u kampir kimning edi? – yana so'radi Shahlo.



– Kimim bo‘lardi – hech kimim, lekin u kampir qari. Qarilarga yordam berish esa sen bilan mening insoniy qolaversa, o‘quvchilik burchimiz...

– Boya shunday deganingda balki men ham...

– Yordam aytib qilinmaydi-da, dugonajon! – dedi Noila.

Shahlo yo‘lovchi kampirga Noiladay yordam berolmaganidan o‘z-o‘zidan uyali ketdi.

SAKKIZINCHI AVLOD


Bugun tongdan osmon shu qadar tiniq ediki, so‘rida cho‘zilib dam olayotgan Merganboy ovchi nazdida kimdir uni avval yuvib, keyin artib chiqqanday tuyulardi.

Kun ochiq, yotsa yotaveradi, yaxshisi turgani ma‘qul. Ovgga bormay qo‘yganiga ham ancha bo‘ldi. Shunday ochiq kunda bormasa, qachon boradi. Cholini o‘rnidan turib yo‘l harakatini qilayotganini ko‘rib kampiri yorildi:

– Hoy, chol, qayoqqa? Kecha bolalaringizga, «Endi bo‘ldi, ovga bormayman» degandingiz-ku!

– Degan bo‘lsam degandirman, kampir. Yotaversam bo‘lmaydiganga o‘xshaydi, oyog‘im uvishib qolayotibdi. Bir chigilini yozmasam bo‘lmas. Bilasan Merganboy ovchi nomim bor. Ovgga borsam quruq qo‘l bilan qaytmaganman. Endi bo‘lsa sen qayoqqa deb tursang.


– Men aytganim-da, siz qolarmidingiz. Mayli boring, ovingizni barakasini bersin.




Merganboy o‘z nomi bilan mergan-ovchi edi. Qachon ovga borsa quruq qaytmasdi. Dastlab bir havas bilan boshlangan ovchiligi bora-bora uning kasbiga aylangandi. Endi u qo‘liga miltiq olmay turolmasdi. Olmagan kuni bir kemptik kunday tuyulardi unga. Shu-shu u ovga, ovchilikka mehr qo‘ydi. Ov o‘ljalari unga olam-olam zavq berardi. Shundanmi boshqa biror kasbni qilishi ovchiligiga xiyonatday bilardi.

Qishloqdoshlari ham uning ishiga ko‘nikib, ko‘rishganlarida unga omad tilab qolishardi. Merganboy ovchi o‘z ishida esda qolarli, so‘zlashga arzigulik hodisalarni boshidan o‘tkazdi. Merganboy ovchi ko‘p dovruqli edi, shu atrofdagi ne-ne ovchilar unga teng kelolmay bu ishdan voz kechishdi. U bo‘lsa shu-shu – Merganboy ovchi bo‘lib kelaverdi. Ovni tashlagan kuni hayoti tugaganday bo‘lib tuyulardi, shundanmi darrov ovga chiqib dilidagi yomon fikrni quvib solardi. Ovdan quruq qaytmasdi, quruq qaytgan kunini eslay olmasdi ham. Bugun bo‘lsa...

Merganboy ovchi tog‘ni rosa aylandi – hech narsa yo‘q! Hatto har doim kakralashib yuradigan kakliklar ham, buloq atrofida o‘ralashib yuradigan yovvoyi o‘rdaklar ham ko‘rinmasdi. Uyga qaytay desa o‘ljasi yo‘q. Shundan qishloqqa kech qaytishga ahd qildi. Biron kim ko‘rib «quruqmi?» demasin dedi-da. Yana og‘zi botirroq‘i: «Hoy Merganboy, holing shu ekan-da, o‘ljasiz so‘ppayib qaytibsan-da» deyishsa bormi, o‘lganida. O‘ziga ham o‘ljasiz qaytishi azob-yursa yo‘li unmaydi, oyog‘i ham o‘ziga bo‘ysunmas – qanday tik yurib kelayotganidan o‘zi ham hayron bo‘lardi.



Ana, tog' cho'qqilari ham qoraya boshladi. Uch-to'rt qadam naridagini tanish, ko'rish qiyinlashdi. Yaxshiyam, kech qaytgani, uyining eshigiga yetguncha ham biron kimsa duch kelmadi. Peshvoz chiqqan kampiri ham cholining avzoyini buzuq ko'rdi. Xurjunda hech narsa yo'qligini bilgach, yanada ajablandi. Har doim go'shtli o'lja bilan erini kutgan ayol qozon-tovoqqa unnay ketdi.



– Bugun ov bo'lmadi, kampir! Bugun o'qim otilmadi, kampir! Qayoqdan ham ertalab yuvuqsiz, po'rim Ergashni ko'rganim-ko'rishganim – barakamni qochirdi.

Merganboy ovchi uzoq uh tortdi, chuqur-chuqur nafas oldi. Alami bosilmadi. Kampiri dasturxonga har galgidek bir dasta non, bir kosa qaymoq qo'ydi.

– O'g'ling qani!

– O'rtoqlari bilan ketdi.


– Kechqurun nima qilishadi to'planib. Yo «To'y-chi» mahallasidagi xotinlarga o'xshab tun yarimgacha gurung qilishadimi?

– Man bilmadim, otasi...

– San bilmasang, men bilamanmi? Uyda bo'lganingdan keyin qayoqqa, kim bilan ketayapti – bilginda. Erta-perta bir gap chiqsa, bosh egib qolmaylik deyman-da...

– Ja, unchalikmas, otasi. Bir yig'ilishgisi kelishgan-da bolalarni...

– Shu daydishidan ko'ra, ertaga kirar o'qishini o'ylasin. Yo men bilan kasbimni o'rgansin. Yetti pushtim ovchi o'tgan, biri kam bo'lmagan. Bu bolang o'zi nimani o'ylaydi. Meni yoshimni bilasan, bu yog'i oilaga qaramasa, kim qaraydi, kim?..



Merganboy ovchi ortiq gapirmadi. Ertasiga o'g'lini chaqirib bor boyligi – ov miltig'ini o'g'liga topshirdi. O'g'li tortiqni xushlamaygina oldi. Axir u miltiq otishni, jonli narsani jonsiz qilishni istamasdida. Shundanmi ota ko'ziga ovga borar, tog'-toshlarni aylanar, otgani bitta-yarimta qush bo'lardi, xalos. Bundan otasining fig'oni ko'kka chiqardi.

– Yetti avlodim qilgan ish menda tugabdi-da, eh, attang. Erta qazo kunim yetib, qora yerga kirganimda otamga, bobomga nima deyman?! Men avlodning oxiriman, kasbimizni o'ldirib o'ldim, deymanmi?

Shu kuni ovchi o'g'lini qattiq koyidi.


– Bilasan, men tug'ma Merganman. Yetti push-timiz ovchi bo'lib o'tgan. Sen-chi? Sen – lapashang, noshudsan. Bitta ovni eplay olmasang, otishga yaramasang. Yigitligingni ham gumonga o'raysan-ku. Bu yog'i nima bo'ladi? Bir avlod ishi tugaydimi, oxir.

– Nima qilay, ota?! Sizdaqa ovchilar dastidan hamma jonzot qirilib bitayotgan bo'lsa, nimani otay men, nimani?


– Nimani deydi-ya, ahmoq, izlasang topasan-ku! Bor, eshakni egarlab qo'y! O'zim ovga chiqib, ov qanday bo'lishini ko'rsatib qo'yay senga...

Achchiq ustida Merganboy ovchi eshakni minib ovga jo'nadi. Ortidan o'g'li ergashdi. Merganboy ovchi ketaberdi. Borar manzili – Archalik. Bu joyda ko'p narsa – kiyik ham, tog' echkisi-yu qo'yi ham bor. Astoydil harakat qilsang biror o'lja seniki-da. Yana Archalikni kesib o'tsang – Zarcho'yan. Ular eshakni shu joyda qoldirishdi.

– Bu yog'iga piyoda yurib boramiz.



Ular Archalikdan o'tishgach, kichik daraxtzorga chiqishdi. Chiqishdi-yu, joyida qotishdi-kiyiklar to'dasi. Atrofda sira xavf yo'qday bemalol o'tlashayapti. Merganboy ovchi ham, o'g'li ham, miltiqlarini to'g'rilashdi. Ota to mo'ljal olguncha o'g'li mo'ljalni oldi shekilli, taranglab o'q uzildi. Otganda ham mo'ljalni aniq olib otibdi. Ana, yalanglikda, hozirgina kiyiklar to'dasi o'tlayotgan joyda bittasi yotibdi.



– O'g'lim sen otding, otganda ham zo'r otding. Bilib qo'y, endi sen ham ovchisan. Yana qanaqa ovchi de, Merganboy ovchi avlodining zurriyodi – sakkizinchi avlodisan.

O'g'il sirli iljaydi, axir, u otasi oldida sinovdan o'tdi-da...

Merganboy ovchi shu tun uxlayolmay alahsirab, bobolarini nomma-nom aytib chaqirdi, tongga yaqin uyg'ondi. Uyg'ondi-yu o'g'lini chaqirdi.

– Kechagi ovlagan kiyiging qani?

O'g'li indamadi.

– Qani deyapman?! Jahl bilan so'radi u. Men kechasi bilan uxlolmay chiqdim.


– Qo'yib yubordim, – dedi o'g'li sekingina.

– Qo'yib yubording?! Qanday qilib... Hali sen uni...

Merganboy ovchi biroz o'ylanib turdi-da o'g'li kiyikni uxlatadigan o'q bilan otganini tushundi. Tushundi-yu qah-qah otib kulib yubordi... Bu kulguning ma'nosi ko'p edi... Nazarida uning kulgusiga ona-tabiat ham qo'shilganday bo'ldi...



BOYCHECHAK

Boychechak ajoyib gulda. Hali biron gul, hatto maysa ham bosh ko'tarmasdan yerlarni qoplab



yotgan qorlar bag‘rini yorib chiqadi u. Uyimizda gap boychechak haqida ketganida, bobomning bir qiziq odatlari bor – o‘zining yoshlik yillarini – bolaligini eslaydi.

– Bolam, qo‘lingdagi boychechakni biz ham terardik. Fevral oyining so‘nggi kunlarida qishlog‘imiz yaqinidagi qirlarga chiqib terardik. Bu paytda qishloq ko‘chalarida hali qor qalin yotardi. Qirda esa shamol qorni uchirib ochilib qolgan yerlarida yakkam-dukkam bosh ko‘tarardi u. Shunda boychechak terгани chiqqan bolalar uni tortishib, bir-biridan qizg‘anib terardi. Terganimizni avval yuzimizga bosib, sog‘inch bilan hidlardik, tabarruk bir giyohday ko‘zlarimizga surtardik.



Keyin uni bayroqday qo‘limizda baland ko‘tarib qishloqqa uyimizga chopardik.

Boychechak topdik, boychechak,
Yanoqlarida oy chechak.
Suyunchi bering dadajon,
Suyunchi bering onajon.

Bizlarning shovqin-suronimizga uydan yugurib dadam, oyim, keyin qo‘ni-qo‘shnilar chiqardi. Ularning ko‘zlarida yosh yiltillardi. Keyin iltijoli ovoz bilan:

– Qo‘shiq aytgan tillaringdan aylanaylar, yana aytinglar, jo‘r bo‘lib aytinglar, ovozlaringizni baland qilib aytinglar, aytmaganlar qolmasin.

Biz shuni kutib turganday yana qo‘shig‘imizni takror ayta boshlardik:

«Boychechak topdik, boychechak,
Yanoqlarida oychechak...»

Qo'shig'imizga butun mahalla yig'iladi, kimning qo'lida qand, kimning qo'lida novvot, yana turshag-u mayizlar, tillarida esa «baxtli bo'linglar», «rizq-ro'zinglar butun bo'lsin», degan shirin tilaklari...


Biz yiqqanlarimizni bir chekkaga olib chiqib bo'lib olardik, yeyiladiganlarni o'tirishib yeb olardik.

Shunga ham qancha bahor, qancha yoz o'tdi. Senday bola bo'lgan bizlar ham qaridik. Ammo har yili qo'limizga boychechakni olganimizda olisda qolayotgan bolalik yillarimiz yodga kelaveradi. Sochlarimizga qirov qo'nsa ham qalbimizdagi olis bolalikning quvnoq chechagi dillarimizga ishonch bildirib, yashashimizga kuch bo'lib, qudrat bo'lib, orzu bo'lib ochilib bo'y tarataberadi. Shu sababli ham men bahorni, boychechakni sog'inaman...

YO'L

Qishlog'imizdan Chotqol tog'lari tomon ilon izi uch yo'l ketgan. Biri Sizni ajoyib dam olar maskanimiz Sharshara darasiga yetaklasa, yana biri Uytosh, Olchali buloq, Teraklisoy manzillariga yetkazadi. Uchinchi yo'limiz tepalaridagi Qir yaylovga, u orqali esa Yonbuloq, Archalik, Zarcho'yan go'shalariga olib boradi.

Har uchala yo'l ham Siz bilan bekinmashoq o'ynayotganday hali tikka, hali pastlikka, hali tog'tepalaridagi baland-pastliklarga yetaklaydi. Har uchala yo'lda qanchalar yurmang, oxiri ko'rinmaydi,



biri biriga ulanib ketaveradi. Sir emas odam yurishi ancha qiyin bu yo‘llarning oxirini kutib ovora bo‘lmang. Boya aytganimizdek yo‘lga yo‘l ulanib chozilaveradi. Siz esa yo‘llarning tugashini istab yuraverasiz, toliqishni sezmaysiz. Aksincha, o‘zingizdagi sabr-bardoshga kuch berasiz. Bosgan har bir qadamingiz ortidan o‘t chaqnaganday miltillab, yiltillab nimadir qolaveradi. Shunda toqqa yo‘l yurish osonmasligini bilasiz.

Qancha yuksaklikka ko‘tarilsangiz, taningiz shuncha ko‘p qiziydi. Qadamlaringiz og‘ir-og‘ir tushadi. Yurishlaringiz sekinlashadi. Cho‘llaganday bo‘lasiz, bo‘laverasiz. Endi yo‘lingizda bittami, ikkitami kattakichik daraxtlar uchray boshlaydi. Yo‘lning ba‘zi joylarida daraxtlar sinib, yo‘lni to‘sib ham qo‘ygan. Odamlar singan shoxlarini chetga surib qo‘ymay yo‘lni aylantirib yurib ketaverishgan.

– Odamlar buncha yalqov-a? – deydi sherigim. – Shoxni olib tashlashsa bo‘lmaydimi-a?

– Bo‘ladi, – deyman men. – Qani, keling birgalashib surib qo‘yaylik.

– Nega biz.

Baribir men aytganimda turib olaman – birgalashib uchragan shoxlarni chetga surib qo‘yaveramiz. Yo‘l ochiladi, biz ilgari yuraveramiz.

– Qayerga ketayapmiz? – o‘zimizdan o‘zimiz so‘raymiz.

– Toqqa-da! – javobimiz shu. Yo‘l esa bizni yetaklayveradi. Biz uni ortidan ketaveramiz. Umrimiz ham yo‘l, faqat biz uni qayerda boshlanib qayerda tugashini bilmaydigan yo‘lovchilarmiz.